

**PREZIDENT MAKTABLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING  
ILMIY ASOSLARI VA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH****Qahhorova Shaxnoza**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Prezident maktablarida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik hamda psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Shu bilan birga Prezident maktablaridagi tizimli ta'lim shakli, usul, vositalari haqida ma'lumotlar mujassamlashgan.*

**Kalit so'zlar:** *STEAM - ta'lim, shaxga individual yondashuv, professional ta'lim, ta'lim, ijodkorlik, qobiliyat, bilim, ko'nikma, faoliyat, differensial, tashabbus, ta'lim muassasas*

Prezident va ijod maktablari rahbariyati va o'qituvchilari Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib ta'lim muassasalarini takomillashtirish bo'yicha rejalarni ishlab chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi (PIIMA) tomonidan davlat rahbari belgilab bergan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida 6-7-noyabr kunlari Prezident maktablari direktorlari va 9-10-noyabr kunlari ijod maktablari rahbariyati uchun seminarlar tashkil etiladi.

Prezident maktablari direktorlari uchun tashkil etilgan seminar davomida ishtirokchilar oxirgi yilda ta'lim muassasalari faoliyati, ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish masalalari muhokama etiladi.

Jumladan, ishtirokchilar yoshlarning STEAM fanlarini o'rganishi, iste'dodli yoshlarni fan olimpiadalarga tayyorlash, xorijiy o'qituvchilar ishtirokida mahalliy mutaxassislarining malakasini oshirish masalalarini ham ko'rib chiqadi.

Shu bilan birga Xalq ta'limi vazirligi va PIIMA tizimiga kiruvchi ta'lim muassasalari pedagoglari o'rtasida tajriba va metodologiyalar almashinuvini ta'minlash uchun hamkorlik masalalari ham muhokama etiladi.

Prezident maktablari iqtidorli yoshlarni tanlab olishning, ularning bilim olish va tarbiyalashga qaratilgan yaxlit bir tizimiga aylanishi lozim. Maktablar o'quvchilarda keng fikrlash va o'zlashtirgan bilimlarini samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

Bugun Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmogda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

– Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlat rahbari yig'ilish avvalida. – Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir.

Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi.

– Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak, – dedi Prezident.

Yig'ilishda bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini etishtirish masalasiga borib taqalayotgani qayd etildi. Shu bois maktab direktorlari va muallimlarga ko'p narsa bog'liq. Ular qishloq va shaharlarda ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat tarqatadigan fidoyi kishilardir. Maktablar nafaqat ta'lim maskani, balki mahallaning madaniy, intellektual markazi bo'lishi zarur.

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat [regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz) portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi.

Farmon loyihasida ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Jumladan, jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning echimlari aniq belgilab berilmogda.

eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek, mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi va e'tiborini tubdan o'zgartirish, ularning mas'uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda.

Videoselektor yig'ilishida ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etib, ta'lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri.

– Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoev.

Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi.

Yangi metodikani samarali yo'lga qo'yish uchun barcha maktab o'qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'qitiladi. eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo'nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi. Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari bo'yicha chet ellardagi ilg'or darsliklar chuqur o'rganib chiqiladi.

Maktablarni ta'mirlash, obodonlashtirish, isitish kabi xo'jalik masalalariga hokimlar shaxsan mas'ul ekani eslatib o'tildi. Shuningdek, oliy o'quv yurtiga kira olmagan bitiruvchilarni muayyan kasb-hunar yoki tadbirkorlikka jalb etish muhim.

Shu bois kelgusi yildan boshlab 7-sinfдан o'g'il-qizlarning kasbga qiziqishlarini aniqlash va bosqichma-bosqich kasbga yo'naltirish amaliyoti joriy qilinishi belgilandi. Hududdagi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish korxonalari maktablarga birlashtiriladi.

Har bir maktab reytingini hamda shu asosda ta'lim sifati bo'yicha tuman, shahar va viloyatlar reytingini ishlab chiqish zarurligi aytiladi. Reyting natijalariga qarab, maktab direktorlari va o'rinbosarlari, o'qituvchilar, hokimlar va ularning ta'lim bo'yicha maslahatchilari faoliyatiga baho beriladi.

Reytingda birinchi beshlikka kirgan maktab direktorlariga mahalliy byudjetdan ustama to'lanadi. Xususan, maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlariga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 baravaridan 12 baravarigacha rag'batlantiruvchi to'lovlar beriladi. Shu bilan birga, xalq ta'limi bo'limi rahbari va metodisti, maktab direktorlari, tuman reytingida birinchi va ikkinchi o'rinni egallagan maktablarning 2 nafar ilg'or o'qituvchisiga kasaba uyushmalari hisobidan har yili sihatgohlarga ikki haftalik bepul yo'llanma beriladi. Shuningdek, fidoyi pedagoglar boshqa yo'llar bilan ham rag'batlantiriladi.

Yig'ilishda pedagog kadrlar malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda pedagoglar har 5 yilda, rahbar kadrlar esa har 3 yilda malaka oshirmoqda. Lekin bu to'la qamrov uchun etarli emas. Joriy yilda Sirdaryo viloyatida 11 ming nafar maktab o'qituvchilarining barchasi sinov tariqasida masofaviy malaka oshirish kurslari bilan qamrab olinmoqda.

Kelgusi yili Buxoro, Samarqand, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida malaka oshirish bo'yicha masofadan o'qitish tashkil etiladi. Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagog kadrlar malakasini oshirishda respublikada etakchi oliygoh etib belgilanadi. Avloniy nomidagi malaka oshirish instituti esa ta'lim muammolarini chuqur o'rganadigan ilmiy-tadqiqot dargohi bo'ladi.

O'qituvchilar toifasini belgilash tartibini ham tubdan qayta ko'rib chiqish lozimligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida mehnat qilayotgan 490 mingdan ziyod pedagoglarning 4 foizi oliy, 15 foizi birinchi toifaga ega. 4 bosqichdan iborat amaldagi attestatsiya tizimida qog'ozbozlik hanuzgacha saqlanib qolgan.

Shu bois mutasaddilarga toifa berish tartibini soddalashtirish, pedagoglar bilimni yil davomida baholash imkonini beruvchi 2 bosqichli tizimga o'tish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yana bir muammo – ta'lim sifati pastligi, moddiy-texnika bazasi etarli bo'lmagani sababli ayrim maktablar to'liq quvvatda ishlamayapti. Masalan, Toshkent shahridagi 32 ta maktabda o'qituvchilarni qamrab olish darajasi past.

Mamlakatimizda xususiy ta'lim muassasalariga keng sharoit yaratilayotgani bois kelgusi yildan eksperiment tariqasida kam quvvatda ishlayotgan maktablarni tanlov asosida salohiyatli talabgorlarga ishonchli boshqaruvga berish taklifi bildirildi.

Maktablarda zamonaviy boshqaruvni joriy qilish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. endi maktab direktorlarini lavozimga tayinlash bevosita mahalliy kengashlar bilan kelishilgan holda, tanlov asosida amalga oshiriladi. Har bir nomzod maktabning ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha o'z dasturi bilan tanlovda ishtirok etadi va har yili kengashlar oldida hisobot beradi.

Bundan asosiy maqsad – maktablarning samarali faoliyatini tashkil etish, direktorlar ishiga noqonuniy aralashuvlar va kadrlar qo'nimsizligiga barham berish.

Maktablar bilim bilan birga tarbiya, ma'naviyat maskani hamdir. Davlatimiz rahbari bu ishlarga hududlarda yashab, ijod qilayotgan shoir va yozuvchilarni keng jalb qilish, maktablarning direktor jamg'armasidan va mahalliy byudjet mablag'laridan ularga oylik maosh to'lash lozimligini ta'kidladi.

Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va qamrovni oshirish, har bir hududda kamida bittadan nodavlat oliy bilim yurti tashkil qilish muhimligi qayd etildi.

Prezident maktablari tahsil olish, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish - mutlaqo bepul bo'lib, bunda ta'lim oluvchilariga umumiy o'rta ta'lim beriladi. Bunda Prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim jarayonida ilg'or

texnologiyalarni qo'llash orqali qobiliyatli o'quvchini aniqlash va o'qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, qobiliyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan, keng dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashdan iboratdir.

Prezident maktabi o'quvchilari uchun maxsus dastur asosida tizimli muhit, innovatsion shart-sharoitlari yaratilgan bo'lib, o'quvchilar bepul oziq-ovqat, maktab formasi, yashash joyi bilan ta'minlanadi. Ovqatlanish-besh mahallik ratsionni tashkil etadi.

Prezident maktablariga yuqori malakali o'qituvchilar faoliyat olib borib, ular ham ma'lum me'zonlar asosida tanlab olinadi. Bunda o'qituvchilar STEAM yo'nalishidagi fanlar Cambridge University tashkiloti bilan birgalikda tuzilgan dasturga kirgan fanlarni, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv rejalari, dasturlari bo'yicha o'qitilishi sababli quyidagi talablarga javob berishiga alohida e'tibor beriladi.

Prezident maktablaridagi ta'lim jarayoni maktab-internat shaklida tashkil etilganligini e'tiborga olib, o'quvchilar darsdan tashqari o'z ustilarida ishlab, qo'shimcha ta'lim va tarbiya olishi, bunda: tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, turli xil amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish, xorijiy tillarni o'rganish, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish kabi kelajak ko'nikmalarini o'rganishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktablari o'quvchilari haqida taxliliiy ta'limot1 Jurnal. Toshkent-2021, 3-bet
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. O'RQ-637-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari tPNy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 6<sup>^</sup>П. 1-ilova IV-4.
4. Burxanov A., Shodmonov Q, "Psixologiya" 2006-yil, 87-b.
5. Бодалев, А. А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения / А. А. Бодалев. — М. : Флинта: Наука, 1998.-165 с.
6. Бегалиева С.Б., Акмеологический подход - новая парадигма в совершенствовании подготовки будущих специалистов // Успехи современного естествознания. - 2013. - № 7. - С. 123-126
7. Веретенникова Л.К. "Подготовка будущих учителей к формированию творческого потенциала школьников" док.пед.наук дисс. -М. 340 ст.
8. Садовникова И.Е, Развитие творческого потенциала школьников в образовательном процессе дис.канд. пед.наук - Екатеринбург, 2003.-168 ст.
9. Данилова Г.С., "Акмеолічна школа» нова яюсть освгги / Г.С. Данилова // Освгга і управлшня. - Т. 12. - 2002. - № 2. - С. 96 - 108
10. Дроздикова Л.Н., "Диагностика творческого развития личности" Методическое пособие, Новосибирск-2003г 8-15 ст